SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK
ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK: 371.031:681
ORCID: 0009-0001-9407-4275

ESHBOYEV UMID SHUXRATOVICH,
Termiz davlat pedagogika instituti
Matematika va informatika kafedrasi o'qituvchisi
TO'RAYEV RO'ZIBOY NOROVICH,
Matematika va informatika kafedrasi v.b. dots.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALARNI KREATIV KOMPETENSIYASINI SHAKLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI VA SHARTLARI

ANNOTATSIYA. Maqolada raqamli ta'lim muhitining talabalarda kreativ kompetensiyani (ijodiy fikrlash, innovatsion muammolarni yechish, original mahsulot yaratish qobiliyati) rivojlantirishdagi imkoniyatlari va pedagogik omillarini kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan. Kompetensiya, kompetentlik, kreativ kompetensiya tushunchalariga izoh berilgan. Kreativ shaxs, kreativlik, ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat tushunchalari yoritilgan. Ishda kreativ kompetensiyani shakllantirishning to'rt asosiy pedagogik omili – o'qituvchining rahbarlik roli va raqamli malakasi, zamonaviy raqamli vositalar va resurslar (AI, VR/AR, kollaborativ platformalar), talabalarning ichki motivatsiyasi va faolligi, shuningdek, tashkiliy-infratuzilmaviy shart-sharoitlar batafsil yoritilgan. Muallif tomonidan muammoga yo'naltirilgan o'quv (PBL), gamifikatsiya, flipped classroom, shaxsiy ta'lim traektoriyalari kabi zamonaviy metodlarning kreativlikka ta'siri nazariy jihatdan asoslangan.

KALIT SO'ZLAR: *raqamli ta'lim muhiti, kreativ kompetensiya, ijodiy fikrlash, sun'iy intellekt, gamifikatsiya, shaxsiy ta'lim trayektoriyasi, pedagogik omillar.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ ОБУЧЕНИЯ

АННОТАЦИЯ. Статья посвящена комплексному анализу возможностей и педагогических факторов цифровой образовательной среды в развитии креативной компетентности (творческого мышления, инновационного решения проблем, способности создавать оригинальные продукты) у обучающихся. Раскрываются понятия «компетенция», «компетентность», «творческая компетентность». Раскрываются понятия «творческая личность», «креативность», «творчество», «изобретательность», «деятельность, направленная на создание новизны». В работе подробно рассматриваются четыре основных педагогических фактора формирования креативной компетентности: лидерская роль и цифровая компетентность преподавателя, современные цифровые инструменты и ресурсы (ИИ, VR/AR, платформы для совместной работы), внутренняя мотивация и активность обучающихся, а также организационные и инфраструктурные условия. Автор теоретически обосновывает влияние современных методов на креативность, таких как проблемно-ориентированное обучение (PBL), геймификация, «перевернутый класс» и персональные образовательные траектории.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *цифровая образовательная среда, креативная компетентность, креативное мышление, искусственный интеллект, геймификация, персональная образовательная траектория, педагогические факторы*.

PEDAGOGICAL FACTORS AND CONDITIONS FOR THE FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE COMPETENCE IN A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT

ABSTRACT. The article is devoted to a comprehensive analysis of the possibilities and pedagogical factors of the digital educational environment in developing creative competence (creative thinking, innovative problem solving, the ability to create original products) in students. The concepts of competence, competence, creative competence are explained. The concepts of creative personality, creativity, creativity, creativity, activity aimed at creating novelty are covered. The work covers in detail the four main pedagogical factors of the formation of creative competence - the leadership role and digital competence of the teacher, modern digital tools and resources (AI, VR/AR, collaborative platforms), internal motivation and activity of students, as well as organizational and infrastructural conditions. The author theoretically substantiates the influence of modern methods on creativity, such as problem-based learning (PBL), gamification, flipped classroom, and personal learning trajectories.

KEYWORDS: *digital learning environment, creative competence, creative thinking, artificial intelligence, gamification, personal learning trajectory, pedagogical factors.*

KIRISH. Butun dunyoda hozir katta e'tibor ostida turgan tushunchalar bular "raqamli savodxonlik, "raqamli ta'lim", "raqamli ta'lim muhiti", "raqamli didaktika" bo'lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtda raqamlashtirish inson faoliyatining barcha sohalarini ishonch bilan tezkor egallab bormoqda. Jamiyat oldida endi ana shu raqamli kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan mutaxassislarni tarbiyalash vazifasi turibdi. O'zbekistonda ham Prezident Sh.M.Mirziyoyev raqamli iqtisodiyot, raqamli ta'lim, raqamli aqlli shaharlar qurish, minglab dasturchilar tayyorlash to'g'risida qarorlar va farmoyishlar chiqardilar. Raqamli ta'lim sohasida qator mutaxassislar tayyorlash ta'lim dasturiga kiritilgan. Davlat xizmatlarini yo'lga quyib butun aholiga raqamli ta'lim berish ularda raqamli murojat ko'nikmalarini, telefon va kompyuterlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish yo'lga qo'yilmoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimi raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. Axborot-kommunikatsiya vositalarining keng qo'llanilishi pedagogik jarayonni takomillashtirish, talabalarning bilim olish motivatsiyasini oshirish va o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, raqamli ta'lim muhiti sharoitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan, chunki bu kompetensiyalar o'qituvchining ta'lim sifatini ta'minlashdagi asosiy omillardan biridir. Ta'limning raqamli formatga o'tishi nafaqat texnik vositalardan foydalanishni, balki metodik yondashuvlarni ham tubdan o'zgar-tirishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik kompetensiyalarni raqamli muhitga moslashtirish, ularni takomillashtirish va amaliyotda qo'llash bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli ta'lim muhiti – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilgan o'quv makoni bo'lib, unda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot, bilim berish va bilim olish jarayoni virtual platformalar, elektron resurslar, interaktiv vositalar orqali amalga oshiriladi. Shu muhitda pedagogik faoliyatning samaradorligi o'qituvchining raqamli kompetensiyalariga, metodik yondashuvlariga va innovatsion fikrlashiga bog'liq bo'ladi. Raqamli muhitda o'qituvchining bilim berish, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va shaxsiy rivojlanishga xizmat qiluvchi faoliyati qanday o'zgaradi, qanday yangicha yondashuvlar paydo bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv va uning xarakterli xususiyatlari borasida tadqiqotchilar turlicha fikr bildirishgan. L.O.Filatova tomonidan taklif etilgan kompetensiyaviy yondashuvning tayanch xarakteristikalari quyidagicha:

- kompetentlik ta'limning ham intellektual, ham malakaviy elementlarini birlashtiradi;
- kompetentlik toifasi quyidagi komponentlardan iborat: kognitiv, operatsional-texnologik, motivatsion, axloqiy, ijtimoiy va xulqiy;
- "kompetentlik" tushunchasi natijaga qaratilgan ta'lim mazmunini to'ldirishga tayanadi;
- kompetensiyaviy yondashuv o'z tarkibiga asosiy ko'nikmalarni iden-tifikatsiyalashni oladi;
- kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish maktabda o'qitish jarayonida atrof-muhit ta'sirida bo'ladi;
- kompetensiya faoliyatdan kelib chiqadi va rivojlanadi, bu bilan mazkur tushunchaning protsessualligi ajratib ko'rsatiladi;
- kompetensiyaviy yondashuv jamiyat talablariga hamda ishlab chiqarish sohasidagi tez-tez o'zgarib turuvchi texnologiyalarga tayanadi 1.

Tadqiqot fenomenining kelib chiqish tarixini tahlil qila turib, biz shunday xulosaga keldikki, haqiqatda "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining ma'nosiga aniqlik kiritish borasida ham turli-tuman fikrlar mavjud.

L.N.Bolotov, T.I.Shamova, A.L.Andreev kabi mualliflar "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini sinonim deb hisoblashadi hamda uning amaliy yo'nalganligini shunday ta'kidlashadi: "kompetensiya mavjud bilimlar bilan inson amaliyoti faoliyati o'rtasidagi munosabat doirasi hisoblanadi" 2.

A.V.Xutorskiyning fikricha, "kompetensiya" tushunchasi aniq bir predmet va jarayonlar doirasiga qaratilgan shaxs sifatining o'zaro bog'liq kompleksini nazarda tutadi 3.

Kompetensiya – ta'lim oluvchining nazariy bilimlarga asoslangan hamda aniq bir hayotiy holatlarda muammoli vaziyatlarni hal etishga qaratilgan, bugungi kun talab etayotgan mustaqillik, ijodkorlik, tadbirkorlik, tashabbuskorlik kabi kasbiy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat usullaridan foydalanish qobiliyatidir.

Kompetentlik – ta'lim oluvchining shaxsiy munosabati va faoliyat predmetini o'z ichiga oluvchi muhim kompetensiyasini egallashidir.

Inglizcha "competence" tushuncha-sining lug'aviy ma'nosi "qobiliyat" demakdir, biroq kompetensiya atamasi bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv deganda nimani tushunamiz? "Competence" so'zi "to compete" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "musobaqalashmoq", "raqobatlashmoq", "bellashmoq" degan ma'noni bildiradi. So'zma-so'z tarjima qilinsa, "musobaqa-lashishga layoqatlilik" ma'nosida keladi 2.

Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda berilishicha, "kompetensiya", "kompetent-lilik" o'ta murakkab, ko'p qismli, ko'pgina fanlar uchun mushtarak bo'lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqinlari ham hajman, ham tarkibiga ko'ra, ham ma'no, mantiq-mundarijasi jihatidan turli-tumandir. Atamaning mohiyati, shuningdek, "samaradorlik", "moslashuvchanlik", "yutuq-lilik", "muvaffaqiyatlilik", "tushunuvchan-lik", "natijalilik", "uquvlilik", "xossa", "xususiyat", "sifat", "miqdor" kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda 3.

Tadqiqot davomida "kompetentlilik", "kompetensiya" tushunchalarining ma'no-mundarijasi aniqlashtirildi. U

quyidagilarda o'z aksini topadi:

- bilimlar majmuining amalda qo'llanilishi;
- shaxsning uquvi, xislatlari, fazilatlari;
- amaliy faoliyatga tayyorgarlik o'lchovi;
- muammolarni hal etish, amalda zarur natijalarni qo'lga kiritish layoqati;
- shaxsning professional faoliyatini ta'minlovchi bilim, ko'nikma, malakalar yaxlitligi;
- faollashgan (amaliyotga tatbiq etilgan) o'quv, bilim, tajribalar majmui;
- shaxsning maqsadli yo'naltirilgan emotsional iroda kuchi 2.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarining bilim saviyasi, o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab munosib ravishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- o'qitishning og'zaki metodi;
- o'qitishning amaliy ishlar metodi;
- o'qitishning ko'rgazmali metodi;
- muammoli evristik modellashtirish metodi;
- o'qitishning muammoli izlanish va reproduktiv metodi;
- o'qitishning induktiv va deduktiv metodi;
- o'qitishda rag'batlantirish va tanbeh berish metodi;
- o'qitishda nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodi.

Yuqorida qayd etilgan metodlarni takomillashtirgan holda, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llab, o'quvchilarda kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishni takomillashtirish mumkin.

Kreativlik (lot., ing. "create " – yaratish, "creative " yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirligini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash ko'zda tutilgan. Unda milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini, o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kabi vazifalar hamda umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan o'quv fanlari nomi, o'quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimoti belgilangan 4.

Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi. Kreativlik so'zi inglizcha "kreate" (yaratuvchanlik, ijodkorlik) so'zidan olingan bo'lib, inson shaxsining ijodkorlikka bo'lgan qobiliyati, ijodkorlik iste'dod darajasi, individning an'anaviylik yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq bo'lgan, prinsipial yangi g'oyalarni yaratishga tayyorlikni xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni o'zgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil faktori sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatlaridir [3].

Kreativ shaxs bo'lish, bizning mavzumiz doirasida esa, kreativ o'quvchi bo'lish – bugungi ta'lim olish faoliyatida afzalliklarga ega bo'lish, masalan, boshqa o'quvchilar ichida ajralib turish, boshqalarga qaraganda qiziq suhbatdosh bo'lish, murakkab mavzularni o'zlashtirish, ta'limda uchraydigan qiyinchiliklardan chiqishda noodatiy tarzda yo'l topish demakdir.

Kreativ qobiliyatlarni faqat yangi g'oyalarni yaratish uchungina emas, balki hayot tarzining yoki alohida olingan aspektlarni yaxshilash uchun qo'llash va shaxsning ichki dunyosi rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Kreativlik axborotni yodda saqlash va faktlarni yig'ishga asoslanganligi tufayli an'anaviy ta'lim sistemasi har doim ham o'qitishda kreativ yondashuvga asos bo'la olmaydi. Bu holat shaxsga yo'naltirilgan ta'limning, xususan, o'quvchining kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga qodir emas. Kundalik hayot tarzi, ko'pincha, shaxsning kreativ xususiyatlarining pasayishiga sabab bo'ladi. Shu tufayli, kreativ qobiliyatlarning rivojlanishi uchun faqat maxsus tashkil qilingan muhit bo'lishi lozim.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyatidir [1].

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lmasligi tufayli o'quvchilar ham qiziqarli va ajoyib g'oyalarga ega bo'lsalar-da, ularni ifodalashda sustkashlikka yo'l qo'yadi. Buning sababi ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodlar o'quvchilarda erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi.

Raqamli ta'lim muhiti (inglizcha: Digital Learning Environment – DLE) zamonaviy ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u talabalarning kreativ kompetensiyasini (ijodiy fikrlash, innovatsion yechimlar topish, muammolarni yangicha ko'rish va amalga oshirish qobiliyati) rivojlantirishda muhim platforma hisoblanadi. Kreativ kompetensiya 21-asr ko'nikmalarining markaziy qismi bo'lib, PISA-2022 natijalarida va UNESCO'ning "Education 2030" dasturida alohida ta'kidlangan. O'zbekiston Respublikasining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va "Raqamli ta'limni rivojlantirish" dasturi doirasida bu jarayon milliy darajada qo'llab-quvvatlanmoqda.

O'qituvchi raqamli muhitda "facilitator" (yordamchi rahbar) rolini o'ynaydi, ya'ni talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltiradi, lekin ularning mustaqilligini cheklamaydi. Bu omil kreativlikni shakllantirishning asosiy vositalaridir.

1. Interfaol va innovatsion metodlar qo'llash: Muammoga yo'naltirilgan o'qitish (PBL): Talabalar real muammolarni (iqlim o'zgarishi) raqamli vositalar orqali hal qiladi. Google Classroom'da loyiha topshirig'i – "Raqamli shahar ekologiyasi"ni loyihalash. OECD hisobotida PBL kreativ fikrlashni 28% oshirishi ko'rsatilgan.

- Gamifikatsiya: Kahoot, Quizlet yoki Classcraft orqali o'yin elementlari (ballar, darajalar, jamoaviy raqobat). Bu talabalarni motivatsiya qiladi va xato qilishdan qo'rqmaslikka o'rgatadi.

- Flipped Classroom modeli: Uyda YouTube yoki Edpuzzle videolari ko'rish, darsda raqamli muhokama qilish mumkin. Natija: Talabalar 40 foiz ko'proq ijodiy g'oyalar taklif qiladi.

2. Shaxsiy va differensial yondashuv: AI vositalari (Google for Education AI yoki adaptive learning platformalari seperti DreamBox) har bir talabaning darajasi va qiziqishlariga mos topshiriqlar beradi. Matematika darsida Canva AI orqali grafik modellar yaratishda past o'zlashtiruvchi talabalarga oddiyorq masala, kuchlilar uchun murakkab masala taklif etadi.

3. O'qituvchi malakasi va uzluksiz rivojlanishi: o'qituvchilarni onlayn malaka oshirish kurslari Courseradagi "Digital Pedagogy" kurslari, Microsoft Educator Community yoki Tasheneva markazi seminarlari qatnashish. Ko'plab o'qituvchilar raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmasi kamligi. Finlyandiya ta'lim tizimida o'qituvchilarning 80 foizi raqamli kreativ metodlarni biladi, natijada PISA kreativlik ballari yuqori.

2. Raqamli vositalar va resurslar (Texnologik omil). Texnologiyalar kreativlikni "vosita" sifatida ta'minlaydi, lekin ularni pedagogik maqsadga moslashtirish muhim.

3. Talabalarning faolligi va motivatsiyasi (Psixologik-pedagogik omillar). Kreativlik talabaning ichki motivatsiyasini oshishiga bog'liq, raqamli muhit esa bu jarayonni faollashtiradi.

Hozirda ko'plab ilm dargohlarida kreativlik kompetensiyasini tarbiyalashga katta e'tibor qaratishmoqda. So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida o'quvchilarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda, lekin shunga qaramay, ko'pchilik o'qituvchilar o'zlarida hamda o'quvchilarda kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o'zlashtira olmayotganligi tajriba-sinov ishlarimizda aniqlandi. Shu boisdan pedagoglarning o'quvchilarda kreativlik kompetensiyasini tarbiyalashga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun, birinchi navbatda, kreativ tafakkur o'qituvchining o'zida mujassam bo'lishi zarur.

Tadqiqot davomida kreativlik kompetensiyasini tarbiyalashning shartlari aniqlashtirildi:

1) o'z tafakkurini original, optimal y yechimlar topish va ularni targ'ib qilishga qaratish, yangi g'oyalarni ishlab chiqishga o'zini undash;

2) yangiliklardan yoki boshqa insonlar siz to'g'ringizda noto'g'ri tushunchaga borishidan cho'chimaslik;

3) keng mushohada etishga harakat qilish, an'anaviy bo'lmagan usullardan foydalanish, o'z tafakkur tarzi, milliy mentalitet va steriotiplar qobig'idan chiqib ketishga urinish, erkin ijodiy mushohada yuritish;

4) agar birinchi tajriba muvaffaqiyatsiz bo'lsa ham, o'z tajribasidan voz kechmaslik, noan'anaviy usullarda fikrlashni davom ettirish, masala y yechimining boshqa variantlarini topishga harakat qilish, boshqa yo'llarni aqlan qidirib topish, davom etish;

5) disput, diskussiya, bahs, munozaralar uchun doimo ochiq bo'lish, uni o'ziga qaratilganligiga ishonmaslik, bahsni to'g'ri tashkil qilish, o'z fikrini har qanday bahslashuv jarayonida nazorat qilib borish;

6) tushunarsiz narsa va hodisalarning mohiyatini anglashga harakat qilish;

7) an'anaviy usullarda faoliyat olib borishdan voz kechish, yangi usullarda ishlashga urinib ko'rish;

8) yangi g'oyalardan qo'rqmaslik, ularni, albatta, keng qo'llash.

Xulosa. Bugungi kunda dunyo ta'lim hamjamiyati, xususan, pedagogika va psixologiya fanlari oldida ta'lim muassasalarida shaxsni optimal rivojlantirish vazifasi turibdi. XXI asr yoshlarini bilimlarni o'zlashtirishda ertangi jamiyatga tayyorlashda nafaqat an'anaviy, balki noan'anaviy kreativ tafakkurga ega bo'lgan kadrlar qilib tayyorlashimiz zarur. Zero, zamonaviy ta'lim taraqqiyoti yangi bilim, malaka va g'oyalar hisobiga rivojlanadi. Bu esa, o'z o'rnida, jamiyat taraqqiyoti, xalq farovonligi va davlatimiz ravnaqi uchun xizmat qiladi. Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.Yakubova. Umumta'lim maktab o'quvchilarida kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Avtoreferat. 2023.

2. Ishmuhamedov R. Abduqodirov A. Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.

3. Xutorskoy A.V. Klyuchevьie kompetensii kak komponent lichnostno-orientirovannogo obrazovaniya // Narodnoe obrazovanie. 2003, №2. – S. 58–64.